
BUXORO AMIRLIGIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMI

Mo'minov Nodirbek Botir o'g'li

e-mail: mominovnodir04@gmail.com

Tel: +998902494943

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Bizga ma'lumki XVI asrdan tashkil topa boshlagan O'rta Osiyodagi mustaqil davlatlar ko'p jihatdan bir-biriga o'xshab ketadi. Chunki ular alohida va mustaqil davlatlar bo'lsa-da, bir mintaqada tashkil topayotgan va qardosh xalqlar, qolaversa aholisining asosiy qismi O'zbeklardan, sulola namoyondalari ham asosan shu xalq vakillaridan edi. Ushbu davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'muriy va boshqa sohalaridagi boshqaruv tizimi ham bir-birini takrorlardi. Jumladan davlat boshqaruvi tizimida ham. Ushbu maqolada Buxoro amirligida davlat boshqaruv tizimi, uning xususiyatlari, tarixiy ildizlari va sulolaga tegishli bo'lgan qimmatli ma'lumotlarni adabiyotlardan foydalangan holda keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Amir, Ko'kaldosh, Boshqaruv tizim, Oo'shbegi, Tanob.

Аннотация: Как известно, независимые государства Средней Азии, начавшие формироваться в XVI веке, во многом похожи друг на друга. Потому что хоть это и отдельные и независимые государства, но это братские народы, образовавшиеся в одном регионе, причем большая часть населения была из узбеков, а представители династии были в основном представителями этого народа. Системы управления этих стран в политической, экономической, военной, административной и других сферах также повторяли друг друга. В том числе и в системе государственного управления. В данной статье с использованием литературы будет подробно освещена система государственного управления в Бухарском эмирате, ее особенности, исторические корни и ценные сведения, связанные с династией.

Ключевые слова: Бухара, Амир, Кокалдош, Система управления, Кошбеги, Таноб.

Abstract: As we know, the independent states of Central Asia, which began to form in the 16th century, are similar to each other in many ways. Because although they are separate and independent states, they are brotherly peoples forming in the same region, moreover, the majority of the population were from Uzbeks, and the representatives of the dynasty were mainly representatives of this nation. The management system of these countries in political, economic, military, administrative and other spheres also repeated each other. Including in the state administration system. In this article, the system of state administration in the Bukhara Emirate, its features, historical roots and valuable information related to the dynasty will be extensively covered using literature.

Keywords: Bukhara, Amir, Kokaldosh, Management system, Koshbegi, Tanob.

XVII asr boshlarida Shayboniylar sulolasiga o'rniga, (Shiban-Siban, Jo'chining o'gli, Temuchin [Chingizxon]ning nevarasi nomidan) Ashtarxoniylar sulolasiga tarix sahnasiga, siyosiy hokimiyatga keldi. XVII asrlarda O'rta Osiyoning juda katta qismi Ashtarxoniylarning qo'lida edi. Afsuski bu



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

sulolaning ayrim hukmdorlaridan tashqari, kuchli siyosat olib boruvchi yaxshi hukmdor ham chiqmadi. Boqi Muhammad, Imomqulixon, Ubaydullaxon davrlaridagina faqat yaxshi natijalarga erishdi xolos. Butun XVII asrlar davomida bu sulola barpo etgan davlat inqirozga duch kelib asta-sekin yemirila boshlagan edi. Biz bilgan Buxoro davlatida XVIII asrlarning o'rtalaridan boshlab O'zbeklarning Mang'it urug'idan chiqqan sulola namoyandalari hukmronlik qila boshlagan edi.

Buxoro amirligining siyoziy tizimi, davlatni boshqarish tartib-qoidalarini, davlatning ramzlari, joriy etilgan mansab va unvonlar ko'p olimlar diqqat markazlariga olganlar. Buxoro amirligida XIX-XX asrning boshlaridagi davlat boshqaruvi tizimi, davlatning siyosiy ma'muriy tizimi va mansab-u unvonlarning tadqiq etish hali hamon dolzarbligini yo'qotmagan. 1927 yili Xoji Yusufbiy ibni Muqimboy, Buxoro hukmdori amir Olimxonning ishonarli elchisi Parijda Millatlar Ligasi anjumanida so'zga chiqib quyidagi so'zlarni aytib o'tadi. "Buxoro amirligi shariat va odat vojibotlariga suyanib hukm surardilar". Ulamo amirni payg'ambar xalifasi va islom shariatining xomiysi deb bilardi. Amirning hayoti islom shariatga batamom mutobiq edi. Buxoro xonlari O'zbek xalqining mang'it sulolasidan bo'lganlar.

Buxoro amirligi viloyatlarga bo'linib boshqarilgan. Buxoro davlatida 28 ta viloyat (Bog'ot)ga bo'lingan. Eng katta va ahamiyatli viloyatlarga amirning o'zi hokimlarni tayinlardi. Nurota, Kelif, Chorjo'y, Qarshi, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Hisor, Boysun, ko'lob, darvoz, Ro'shon ka'bi viloyatlar eng kattasi hisolanardi. "Tarix-i nofey" kitobidagi manbalarda qaraganda, alohida bir viloyatlarga bo'ysungan shahar va nohiyalar ham bo'lgan. Misol uchun aytishimiz mumkin, Mo'minobod Ko'lobga, Dushanbe va Qoratog' Hisorga, Romitan, Vobkent, Xo'ja Bo'ston, Xo'ja Ubon, Xo'ja Orif, Zandana ka'bi viloyatlar Buxoro shahriga bo'yin ekan. XX asrning boshlariga kelib hokimlar va viloyat boshqaruv tizimidagi amaldorlarni tayinlashda o'zgarishlar bo'ldi. Ya'ni amirning o'zi Viloyat beklarini, voliyalarini, qozi va raisni tayinlardi.

"Majma ul-arkom" asaridagi tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, davlat soliq yig'ishda qulaylik yaratish uchun quyidagi ma'muriy-hududiy bo'laklarga bo'linardi. 100 ming tanobdan iborat hosildor sug'oriladigan yerga Tuman, 50 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yerga Xazora, 25 ming tanob sug'oriladigan yerga Nimxazora, 10-15 ming tanob yerga Obxo'ri, 400 tanobli sug'oriladigan yer Qariya, 300 tanob sug'oriladigan yerni Mazraa deb nom berilgan ¹.

Buxoro amirligida davlat boshqaruvi tizimi, qonun-qoidalarini, boshqaruv tartibi mazmun mohiyatiga ko'ra o'zidan oldingi va umuman O'rta asrlar Movarounnahrda davlatlari, xususan Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlat tizimidan diyarli farq qilmagan. Buxoro amirligi davlat tuzulishiga qarab qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatni o'zida mujassam etgan amir tomonidan boshqarilgan. Davlat hayoti uchun muhim bo'lgan diniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh bo'lmish Arkda ko'rib chiqilgan va mazkur muammo hal etilgan. Arkda amir va uning oila a'zolaridan tashqari qo'shbegi, to'pchiboshi, mirzaboshi, shig'ovul ka'bi amaldorlar ham o'z oila a'zolari bilan birga istiqomat qilgan. Muhim masalalar bo'yicha amir boshchiligida davlat kengashi chaqirilib turilgan. Ushbu kengashda 5 tadan 20 tagacha amaldorlar ishtirok etgan.

Mang'itlar davrida davlat boshqaruvi tizimida ikki bo'g'in, markaziy va mahalliy boshqaruv tizimidan iborat bo'lgan. Bu tizimda amir, saroy amaldorlari, o'zbek urug'lari va qabila boshliqlari, ulamolalar va harbiy qo'mondonlardan iborat bo'lgan. Davlat poytaxti Buxoro va uning atrofidagi yerlarni amir

¹ Vohidov Shodmon, Xoliqova Rahbar. "MARKAZIY OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVI TARIXIDAN (XIX-XX ASR BOSHHLARI)" Toshkent-2006. 20-25 b.



tomonidan muhofaza etilib, boshqarilgan. Viloyatlar (bekliklar)ni beklar idora etgan. Kichik hududiy bo'linmalar amlok deb atalib, ushbu yerlarni boshqaruvchi amlokdor deb atalgan. Ma'muriy tuzulishning eng kichik bo'g'ini qishloq jamoalari hisoblanib, ularni oqsqaqollar boshqargan.

Ko'plab manba va adabiyotlarda amirlikda mavjud bo'lgan unvon va mansablar chalkash va bir-birini inkor etgan hollarda uchraydi. Amirlikda eng yuqori mansablar mang'it urug'i vakillariga, sayyidlarga, xo'jalarga, ulomolarga berilgan. Eng yuqori unvonlar bu, amir ul-umaro, bek, otaliq, qo'shbegi, devonbegi ka'bi mansab egalari hisoblangan. Davlat amir, amir ul-umaro tomonidan boshqarilgan va ularning hokimiyati cheklanmagan bo'lgan. Otaliqning unvoni mang'itlar davriga kelib, otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma'muriy ishlarda asosiy yordamchisiga aylandi. Biroq amir Shohmurod davrida otaliqning vakolati keskin cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining taqsimoti nazorat qilish, Buxoro kanali va dorug'alik vazifasi yuklatilgan ekan ².

Buxoro xalqining hasrati kitobida amaldorlar haqida ham ma'lumotlar berib o'tiladi. Jumladan Buxoroning siyosiy va idoriy ishlari esa Qo'shbegi deb atalgan bir kishi raisligida idora qilinardi deb eslatiladi. Buxoroning moliyaviy ishlari va devonbegi qo'l ostida bo'lgan.

Diniy masalalar, qozilik ishlari, umumiy ta'limot masalalari bilan shug'ullanish qoziyul-quzzot ya'ni qozilar qozisining burchiga kirardi. Ba'zi muhim ishlarda to'pchiboshi bosh bo'lardi. Uning vazifa darajalari ushbular qaroridan kelib chiqardi: Qo'shbegi, devonbegi, parvonachi, inoq, dodhobiy, to'qsabo. Buxoro amiri u bilan mansabdor kishilarni va harbiy ofiserlarni mukofotlardi. Quvvayi qazoia-mamlakat taqdirini hal qilish masalasi, Islom qonunlari asosida – amirning qo'lida deb takidlanadi ushbu asarda ³.

1795 yilda yozilgan "Majma ul-arqom" asrida keltirilgan ma'lumotlar, unvon-u mansablar amirlikning so'nggi kunlarigacha ba'zi o'zgarishlar bilan mavjud edi. "Majma ul-arqom" ma'lumotlariga qaraganda eng oliy mansab qoziylar amali bo'lgan. Ulardan oliy darajada *shayx ul-islom* unvoni, keyin *qozi ul-quzzot*, kiyingisi *qozi askar* va oxirgisi *viloyat qozisi* bo'lgan. Kiyingi martabalarda muftiy turgan. Ushbu lavozimning eng yuqori darajasi a'lam unvonidir. Muhtasib kiyingi darajada bo'lardi. Muftiyalar Sayyidlar avlodidan bo'lishlari kerak edi. Kiyingi darajada mudarrislar bo'lar edi. Ular ta'lim bilan shug'ullanmasa ham xazinadan maosh berilardi ⁴.

Kiyingi martabalarda Jo'ybor xo'jalari, naqib, uroqi, kalon, naqshbandiya tariqatining xalifasi turardilar. Jo'ybor xo'jasi sayyidlarga berilib, jo'ybor hukumati (xo'jalar mozori bilan) uning qo'lida bo'lgan. Uchinchi darajali unvonlar olimlar, sayyidlar, o'zbek va mahalliy zodagonlar loyiq deb topilgan amaldorlarga berilgan.

Bundan tashqari amirlikda oliy (yuqori) amaldorlardan tashqari pastroq darajada, lekin davlat hayoti uchun muhim hisoblangan kichikroq mansab egalari ya'ni uchunchi darajali unvonlar ham bo'lgan. Jumladan umladan *Mir asad*. Ushbu lavozim egasi ulamo yoki sayyidlardan bo'lib Buxoro rabotining ichki muhtasibli bir farsaxgacha uning zimmasida bo'lgan. Ushbu lavozim egasi ulamo yoki sayyidlardan bo'lib Buxoro rabotining ichki muhtasibli bir farsaxgacha uning zimmasida bo'lgan. *Fayzi* lavozimi ham ulamo yoki sayyidlardan bo'lib Buxoro rabotining tashqi muhtasibli bir farsax masofagacha uning zimmasida bo'lgan. *Sadr* Buxoro rabotining bir farsaxlik hududining ichkarisidagi

² Eshov, B.J. Odilov, A.A. "O'ZBEKISTON TARIXI" II-kitob. Toshkent-2020. 255-257 b.

³ Amir sayyid Olimxon. "BUXORO XALQINING HASRATI TARIXI" "FAN" nashriyoti. Toshkent-1991. 18 b.

⁴ Vohidov Shodmon, Xoliqova Rahbar. "MARKAZIY OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVI TARIXIDAN (XIX-XX ASR BOSHLARI)" Toshkent-2006. 28 b



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

vaqflar hisob-kitobi uning qo'l ostida bo'lgan. Sudur shu rabotning tashqarisidagi vaqf mulkinging hisob-kitobi uning zimmasida bo'lgan. Bu lavozim egasining shaxsiy muhrlari va mahkamalari bo'lgan. Bundan tashqari to'rtinchi darajali unvonlarda ahli qalam sohiblari bo'lgan. Jumladan *Devoni kalon* amir daftarining amini-saqlanuvchisi bo'lgan. *Mushrif* amir beradigan in'om, sovg'alar, ehson va iltifotlarni maxsus daftarlarda yozib borardi. *Daftardor* katta devondagi tanhador va suyrug'ol mulklarning egalarini ishdan olish yoki lavozimiga qo'yish tartiblarini nazorat qilgan. *Devoni tanobona* lavozimi bahorgi va kuzgi ekinlardan tushadigan xiroj, kirim-chiqim va boshqa xarajat ishlarini olib borardi.

Beshinchi toifa amaldorlarga *Munshi*, *Arbobi daruni shaxr*, *Devoni arabxona*, *Devoni tavjix*, *Avorix* mansablari bo'lgan.

Oltinchi martabadagi amaldorlar nisbatan pastroq darajadagi amaldorlar hisoblangan ekan. *Kitobdor*, *Baxshi*, *amir saisonasi devoni*, *to'shaklar devoni* ka'bi unvonlar shu darajaga kirgan. Yettinchi darajadagi amallarga kichik mushrif, payg'irnavis, devoni mahram, devoni yasovul hisoblanar edi. Sakkizinchi darajadagi amallarga *Sarkor muxarriri*, *amluk mirzosi*, *voqeanavis*, *amborxona mirzosi* kirar edi deb Vohidov va Xoliqovalar o'z kitobida berib o'tadi ⁵.

Buxoro amirligida davlat hayoti va boshqaruv tizimida juda kerakli bo'lgan yana ko'plab amallar-u mansablar mavjud bo'lgan. *Otaliq* lavozimi Buxoroi sharif suvining idorasi, Samarqanddan Qorako'lgacha bo'lgan katta hududda suv taqsimoti bilan mashg'ul bo'lgan. Buxoro mirobligi va dorug'aligi ham uning izmida ya'ni vazifasida bo'lgan. Lekin XIX asrlarning so'nggi choragigacha ushbu mansab davlatdagi eng yuqori mansablardan biri bo'lgan va siyosatda ta'siri kuchli bo'lgan. *Devoni kalon* yoki katta devonbegi bekliklar (viloyatlar) xirojining hisob-kitobi bilan shug'ullangan. Xazinadan to'shakxona mehtari, g'alla zahirasidan amlokdor ka'bi amaldorlarga xarajat uchun mablag' berardi. *Parvonachi* mansabidagi amaldorlar amir farmoniga itoat etib uning yorliqlarini tegishli shaxslarga yetkazib berardi. Arabxona jamoasining rahbarligi ham aynan parvonachi zimmasida bo'lgan. *Dodhoh* mansabdori mazlumlar shikoyatlarini amirga yetkazib javonbini qaytargan. Ba'zan amir ijozati bilan ushbu shikoyatlarni o'zi ham ko'rib chiqardi. Bu mansab saroyda o'z o'rniga ega edi.

Amir o'z ishongan qarindosh yaqinlariga ham muhim bo'lgan amal va mansablar berar edi. Ulardan biri *Ko'kaldosh* (Kukrakdosh) bo'lgan. Ushbu mansab egasi amirning eng yaqin kishilaridan bo'lib, amirning dushmanlari, hayrhohlari, do'stlaridan, qilaydigan ishlaridan xabardor bo'lib turgan. *Qo'shbegi kalon* ya'ni katta qo'shbegi ovchilik, ov qilish uchun kerak bo'lgan asbob-uskunalar, qushlar va itlardan xabardor bo'lib, ov ishlarini tashkillashtirgan. *Inoqi kalon* vazifasidagi amaldor Umaro, shogirtpehalar va boshqalarga amir suhbatiga musharraf bo'lgan yoki bo'lmaganlari haqida xabar berardi. *Xo'jayi kalon*. Bu mansab katta xo'ja deb tarjima qilinib saroy mahramlarining boshlig'i. Amir xarami eshigining qo'riqchisi. Shu bilan birga ushbu mansab egasi xaramga kerakli bo'lgan kiyimlar va oziq-ovqatlarni yetkazib berish ham yuklatilgan.

Inoqi hurd lavozimi ham muhim amal hisoblanib, amir muhrlari saqlanadigan sandiqchaga posponlik qilgan. *Mehtari kalon* esa, musulmonlar ushrlaridan 1\4, musulmon bo'lmaganlardan esa ushrlarning yarmi, harbiylar ushrlarini naqdini, g'alla va topilgan narsalar bilan hisob-kitobini qilib borardi.

⁵ Vohidov Shodmon, Xoliqova Rahbar. "MARKAZIY OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVI TARIXIDAN (XIX-XX ASR BOSHHLARI)" Toshkent-2006. 28-30 b.



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

Dasturxonchi amir dasturxoniga javobgar bo'lib, go'shtni dastuxonga maydalab berib, maxralarga boshchilik qilardi.

Hozir nomi zikr qilinadigan to'rt lavozim egasi, amir hokimiga muvofiq uning suhbatiga musharraf bo'lishlari, yoki bo'lmasliklari mumkin edi. **To'pchiboshi kalon** to'pxona boshlig'i bo'lgan. **Bakovuli kalon** esa amir oshxonasi va uning xodimlarini boshlig'i bo'lgan. Amirlikdagi Somjon tumanining mirobligi ham uning qo'lida bo'lgan. Urog'i xurd amirlar va ahli rikob mulozimlari va xizmatkorlari boshlig'i bo'lgan.

Kafshbardor (poyabzal ko'taruvchisi), asobardor (asa ko'taruvchi), chexraoqasi, Jilavbardor ka'bilar esa xizmatkorlar qatoriga kirgan. Bundan tashqari amirlikda **Eshikoqasi, Chig'atoybegi** (chig'atoy jamoasi boshligi va Mirobod tumanining mirobligi), **To'qsabo, Miroxuri kalon, qo'rchiboshi**. Udaychi, Qoravulbegi, To'shakxona mehtari, Shig'ovul, To'pchiboshi darbori oliy, Miroxurboshi, Shaxna, Chobuqchi (xazinachi), Risolachi, Tufanchi (miltiqsoz), Chandovul, Yo'lchi, Josus, Jibachi, sadoq-qo'rchi, Mo'zabardor (etik ko'taruvchi) kabi lavozimlar va unvonlar bo'lgan. E'tiborlisi shundaki saroydagi aksariyat lavozim egalari o'z vazifasidan tashqari, amirlikdagi tumanlarning biriga mirobilik ishi ham topshirilgan. Jumladan **Eshikog'aboshi** amir saroyi posponligi bilan birga shofirkon tumanining hukumati va mirobligi ham topshirilgan. **To'qsabo** lavozimi esa amir dasturxoniga idishlarni tartib bilan qo'yish, amirga ayron-u sharbat, yaxoblarni quyib berish bilan birga Xarqonrud tumanining hokimligi va mirobligi ham uning zimmasiga yuklatilganligi va boshqa amaldorlarga ham ko'pincha shunday hududlar bo'lib berilganligi albatta ahamiyatli. Bu shundan dalolat bersa kerak-ki, ushbu lavozim egalari saroydagi nufuzli kishilardan bo'lganligi va o'z xizmati uchun birlashtirilgan tumandan keladigan daromati maosh sifatida qabul qilingan bo'lishi ham mumkin. Shu bilan birga ba'zi amirlar davrida esa amaldorlar uchun davlat xazinasidan maoshlar belgilanganligi tarixdan bizga ma'lum ⁶.

Buxoro amirligida, davlat boshqaruvi tizimidagi barcha amaldorlar va mansablar uch guruhga bo'lingan. Harbiy amaldorlar, saroy unvonlari va amallari va diniy unvon va mansablar. Davlat tepasida oliy hukmdor amir, kiyin katta amaldorlar Qo'shbegi, devonbegi, Otaliq (XIX 2-yarmigacha) mansablari turgan.

Harbiy amaldorlar. Oliy darajali: Inoq, Dodxoh, Mingboshi, To'qsabo, To'pchiboshi. **O'rta darajali:** Chig'atoy begi, Eshik og'asi, Miroxo'r, Yuzboshi, Ellik boshi. **Quyida tabaqa:** Qorovulbegi, Dahboshi, Mirzaboshi, Chuhra og'asi, Sarboz.

Faqat hoji va sayidlarga beriladigan unvon va amallar: naqib, Fayzi, Miri ast, Sudur, Sadr, O'roqi kalon, O'roqi xurf.

Saroy unvonlari va amallari: Parvonachi, Dasturxonchi, Xazinachi, Udaychi, Darband, Tunqator, Shig'ovul, Salomog'asi, Bakovul. Qutvol, Mahram, Ponsadboshi, Sharbatdor, Mo'zabardor, Kitobbardor, Bo'xchabardor, Oftobachi va boshqalar.

Diniy unvon va mansablar: Shayxulislom, Qozikalon, qozi, Naqib, A'lam, Oxun, Qozi askar, Mufti askar, Mufti, Rais, Mudarris, Bosh imom, Imom, Muazzin va boshqalar ⁷.

⁶ Rasulova Dilshoda Choriyorovna. "BUXORO AMIRLIGINING SIYOSIY TUZUMI VA DAVLAT BOSHQARUVI" 74-77 b.

⁷ Eshov, B.J. Odilov, A.A. "O'ZBEKISTON TARIXI" II-kitob. Toshkent-2020. 259 b.



Impact Factor: 9.9**ISSN-L: 2544-980X**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak amirlik boshqaruv tizimidagi mansabdorlarning tarkibi chindan ham murakkab. Davlat hayotidagi har bir narsa hisobga olingan va shunga binoan lavozimlar tayin etilgan. Biroq XIX-XX asrlarga kelib ham ushbu mansablar zamon talablariga javob bermay qolganligi yaqqol kuzatiladi. Ko'plab amaldorlar qatlami vujudga kelib, ularning barchasi samarasiz faoliyat olib borar, maoshini esa ko'p hollarda soliq va birlashtirilgan hududlardan keladigan daromat orqali yig'ib olardi. Samarasiz tashkil etilgan boshqaruv tizimidagi bu amaldorlar inqirozga yuz tutayotgan davlatning qulashini qaysidir jihatlarda yanada tezlattirdi. Buning ustiga davlatning eng katta boyligi bo'lmish yerdan foydalanish ham asrlar davomida o'zgarmasdan, feodal tartiblarni o'zida to'liq holda saqlab kelayotgan edi. Zero bu paytda g'arbiy Yevropada yerdan ham kapitalistik munosabatlarda foydalanishayotgan edilar. Davlatda boshqaruv tizim va iqtisodiy munosabatlar to'g'ri yo'lga qo'yilmas ekan, u davlatning oyog'iga o'ralashgan chirmoviq ka'bi uni (davlatni) yiqitishga, kerak bo'lsa parchalanishiga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vohidov Shodmon, Xoliqova Rahbar. "MARKAZIY OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVI TARIXIDAN (XIX-XX ASR BOSHLARI)" Toshkent-2006. 20-25 b.
2. Eshov, B.J. Odilov, A.A. "O'ZBEKISTON TARIXI" II-kitob. Toshkent-2020. 255-257 b.
3. Amir sayyid Olimxon. "BUXORO XALQINING HASRATI TARIXI" "FAN" nashriyoti. Toshkent-1991. 18 b.
4. Vohidov Shodmon, Xoliqova Rahbar. "MARKAZIY OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVI TARIXIDAN (XIX-XX ASR BOSHLARI)" Toshkent-2006. 28 b
5. Vohidov Shodmon, Xoliqova Rahbar. "MARKAZIY OSIYODAGI DAVLAT BOSHQARUVI TARIXIDAN (XIX-XX ASR BOSHLARI)" Toshkent-2006. 28-30 b.
6. Rasulova Dilshoda Choriyorovna. "BUXORO AMIRLIGINING SIYOSIY TUZUMI VA DAVLAT BOSHQARUVI" 74-77 b.
7. Eshov, B.J. Odilov, A.A. "O'ZBEKISTON TARIXI" II-kitob. Toshkent-2020. 259 b

